




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar  zenodo  Open AIRE



+998335668868

<https://innoworld.net>

2026



«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLAR MARKAZI
«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2026-YIL № 4-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI

ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

“Piyoda” hikoyasida qahramon va badiiy detal paralelligi Bekchanova N.

Urganch innovatsiya universiteti
xotin-qizlar maslahat kengashi raisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Erkin A'zamning “Piyoda” hikoyasida qo‘llangan ironik badiiy detallar tahlil qilinadi. Tadqiqotda badiiy detalning faqat kulgi yoki hajv uyg‘otuvchi vosita emas, balki qahramon xarakterini ochish, uning dogmatik qarashlarini fosh etish hamda inson va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritishda muhim estetik-funksional ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi. Hikoyada qahramon obrazi bilan badiiy detalda mujassamlangan ironiya o‘rtasidagi paralellik ochib berilib, aynan shu uyg‘unlik asarning g‘oyaviy yaxlitligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri ekani ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada ironik badiiy detallar orqali muallifning ijtimoiy muammolarga munosabati, inson ruhiyati va voqelikka bo‘lgan qarashi ifodalanishi ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ironiya, badiiy detal, estetik qarash, paralellik, ko‘pfunksiyalilik.

“Badiiy asar – bu tirik, dinamik, ko‘p darajali tizim bo‘lib, unda faqat bitta darajaga mansub yopiq so‘z qatorlari bo‘lishi mumkin emas. Barcha detallar yagona badiiy butunlikda o‘zaro aloqada mavjud bo‘ladi”¹. Darhaqiqat, hikoyada hayot voqealarining bayoni shunchaki qahramonlarning o‘zaro insoniy munosabati, muloqoti orqaligina emas, yozuvchining mahoratidan kelib chiqib, voqelikda keltirilgan kichik detallar orqali ham namoyon bo‘lishini kuzatamiz.

Ma’limki, “...dastlab badiiy detal predmetlar dunyosining hajmiylikni tasvirlash (ifodalash) vositasi sifatida anglangan bo‘lib, u hayotiy ishonchlilik va badiiy haqiqatning kafolati vazifasini bajargan. Keyinchalik detalning estetik funksiyasi murakkablashdi, biroq “detallarning aniqligi” XIX asr klassik realizmining muhim belgisi sifatida an’anaviy ravishda e’tirof etib kelindi. Zamonaviy nuqtayi nazardan qaralganda esa, badiiy detal yanada konseptual tus kasb etadi, bu esa uning asar tarkibidagi barcha unsurlar tizimidagi xususiy o‘rni bilan asarning umumiy, yaxlit mazmunini ifodalashga intilishi o‘rtasidagi qarama-qarshilik bilan bog‘liqdir”². Adabiy tafakkurning rivoji bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, badiiy detal endilikda faqat tasviriy aniqlikni ta’minlovchi unsur sifatida emas, balki muallif konsepsiyasini ixcham va ramziy shaklda ifodalovchi semantik markaz sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, nasriy asarlarda detal orqali voqelikning tashqi manzarasi emas, balki ichki mazmuni – qahramon ongidagi ziddiyatlar, ijtimoiy muhitning yashirin qatlamlari va davr ruhiyati ochib beriladi. Shu bois badiiy detal ko‘pincha syujetdan ko‘ra barqarorroq estetik yukni o‘zida jamlab, asarning g‘oyaviy yaxlitligini ta’minlovchi bog‘lovchi unsur vazifasini

¹ Кадилова Н. Ироническая деталь в художественной системе А.П. Чехова. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Уфа. 2022. – Ст.87.

² O‘sha manba. – B. 37.

bajaradi. Bu holat zamonaviy badiiy tafakkurda tafsilotning tasodifiy emas, balki qat'iy tanlangan va chuqur ma'noga ega kompozitsion birlik sifatida qaralishini ko'rsatadi.

Erkin A'zam nasrida, xususan, hikoyalarda badiiy detallarning ko'pfunksiyaliligi kuzatiladi. Yozuvchi boshdan ayoq bir detalni hikoya davomida harakatlantirishi mumkin. Masalan, "Piyoda" hikoyasida Berdiboyning o'z zamoansidagi yangiliklarni hazm qilolmasligi, nuqul ularga tanqid ko'zi bilan nazar solishi, mazxaromuz kulgini yuzaga keltiradi. Qahramonning eski "uch oyoqli ulovi" – motosikli doim u bilan hamroh. U motosikli "tarillatib" o'ziga aloqasi bo'lmagan ishlarga aralashadi, "Parda qqurbonning qizi sanamni poytaxrda o'qishiga to'sqinlik qilmoqchi bo'ladi; Ukasi Muzaffarning xotini(shaharlik) boshyalang yurganidan xunobi chiqadi, Berdiboyning "ashaddiy g'animi rajabbodi bo'lib, u "televizor degan baloni" olib kelgan. "Erkin A'zamning aksariyat hikoyalarda o'zini voqelikka begona his qiladigan, xayolparast, reallikni boricha qabul qila olmaydigan qahramonlar hayoti qalamga olinadi"³.

Hikoyada badiiy detalning holati qahramonning keyingi taqdiridan bashoart qiladi: "Yo'lning yarmiga kelib, mana shu do'nglikka urilayotganda, pat pat etdi-yu, o'chdi qoldi..."⁴ Badiiy detal qahramon ruhiy holati bilan birgalikda ironiyani namoyon etadi: "Berdiboy battar aynidi: neki yangilikni ko'rsa, g'ijnadigan, dushman ko'zi bilan qaraydigan bo'lib qoldi..."⁵ yozuvchi hikoyada zamon shiddat bilan o'sib-o'zgarib borayotganini, qizlarning ta'lim olishi, yurish turishi, umuman, urbanizatsiyaning turli ko'rinishlari Berdiyorni esankiratib, vosvos qilib, norizolik o'ylar girdobida qoldiradi. Hikoyada qahramonning psixologik holatini badiiy detal bilan hamohang holatda kelishini kuzatar ekanmiz, jamiki yangliklar, texnik taraqqiyotdan nafrat qilayotgan Berdiyori hikoya so'ngida motosikli ham "bir uyum keraksiz temir-tersakdek xunuk, dardisar" deb ko'radi va arnaga itarib yuboradi. Muallif shu o'rinda badiiy detalni-motosikli ta'rifini keltiradi: "Asli almisoqdan qolgan bu shalaq aravaning sog' joyi yo'q, sovxoz necha yillar burun uni hisobdan chiqarib tashlagan, Berdiboy u yoq bu yog'ini yamab-yasqab, bozor o'charga-yu qozon-tovoq orasida minib yurar edi"⁶. Professor Marhabo Qo'chqarova Berdiyori obrazini Servantesning Don Kixoti, A.Qahorning Mulla Norqo'zi, Faxriddini bilan "ruhiyatidagi g'alatilik" sifati bilan bir qatorga qo'yadi⁷.

Umuman, ushbu hikoyada qahramon va badiiy detalda ironiya o'zaro parellilik kasb etgan. Hikoyada badiiy detalning ironik ma'no olishi faqatgina oddiy kulgi qo'zg'atish vositasi emas, balki qahramonni, uning dogmatik qarashlarini, boshqacha qilib aytganda, insonni tushunish, ijtimoiy muammolarni anglash, inson va muhit orasidagi munosabatni aniq ko'rsatish vazifasini bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

³ Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. Фил. Фан. бўйича фалсафа доктори...дисс.Тошкент: 2017. – Б. 74.

⁴ Аъзам Э. Анойининг жайдари олмаси(хикоялар ва қиссалар).Тошкент. "Factor books", 2022. – Б. 36.

⁵ O'sha manba. – B.37.

⁶ O'sha manba. – B. 41.

⁷ Кўчкарова М. Ҳозирги ўзбек насрида бадий шартлилик.Тошкент. Фан. 2020. – Б. 52.



1. Аъзам Э. Анойининг жайдари олмаси(хикоялар ва қиссалар).Тошкент. "Factor books", 2022. – Б. 36.
2. Кадилова Н. Ироническая деталь в художественной системе А.П. Чехова. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Уфа. 2022. – Ст.87.
3. Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. Фил. Фан. бўйича фалсафа доктори...дисс.Тошкент: 2017. – Б. 74.
4. Қўчкарова М. Ҳозирги ўзбек насрида бадий шартлилик.Тошкент. Фан. 2020. – Б. 52.

